ZAMONAVIY IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-uslubiy elektron jurnali — Sharq universiteti
ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

KORXONA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA OPERATSION LEVERAJNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Muxammedova Zarina Murodovna,
Moliya kafedrasi dotsenti, i.f.d (DSc),
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
ORCID: 0000-0002-2999-8068
Xolmurodova S.A., Mk-323 guruh,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
ORCID: 0009-0006-8600-9381
DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67

Annotatsiya: Maqola korxona faoliyati tahlilida ishlab chiqarish leveraji, ya’ni operatsion leveraj ko‘rsatkichining mohiyati va uni baholashning nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda korxonaning doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlari o‘rtasidagi nisbat asosida leveraj darajasini aniqlash, bu ko‘rsatkich orqali ishlab chiqarish hajmi, tannarx va foyda o‘zgaruvchanligini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, operatsion leveraj tahlilining korxona uchun optimal ishlab chiqarish hajmini belgilash, xarajat tuzilmasini boshqarish va foyda barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Natijalar leveraj tahlilini amaliyotda qo‘llash korxonaning moliyaviy samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash va ishlab chiqarish xavfini kamaytirishdagi muhim ko‘rsatkich ekanligini ko‘rsatadi.

Аннотация: Статья посвящена изучению сущности производственного левериджа, то есть показателя операционного левериджа, а также теоретических и практических аспектов его оценки в анализе деятельности предприятия. В исследовании особое внимание уделяется определению уровня левериджа на основе соотношения постоянных и переменных затрат предприятия, анализу волатильности объема производства, себестоимости и прибыли через данный

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

показатель. Также обосновано значение анализа операционного левериджа в определении оптимального объема производства для предприятия, управлении структурой затрат и обеспечении стабильности прибыли. Результаты показывают, что применение анализа левериджа на практике является важным показателем повышения финансовой эффективности предприятия, обеспечения устойчивого развития и снижения производственных рисков.

Abstract: The article is devoted to the study of the essence of production leverage, i.e., the operating leverage indicator, and the theoretical and practical aspects of its evaluation in the analysis of enterprise activity. The research focuses on determining the leverage level based on the ratio of fixed and variable costs of the enterprise, and analyzing the variability of production volume, prime cost, and profit through this indicator. Additionally, the importance of operating leverage analysis in determining the optimal production volume, managing cost structure, and ensuring profit stability is substantiated. The results demonstrate that the practical application of leverage analysis is a crucial indicator for improving financial efficiency, ensuring sustainable development, and mitigating production risks.

Kalit so‘zlar: Doimiy xarajatlar, o‘zgaruvchan xarajatlar, kritik hajm, korxona samaradorligi, CVP tahlil, ishlab chiqarish leveraj, foyda barqarorligi, ishlab chiqarish riski, sentizivlik tahlili.

Ключевые слова: Постоянные затраты, переменные затраты, критический объем, эффективность предприятия, CVP-анализ, производственный леверидж, стабильность прибыли, производственный риск, анализ чувствительности.

Keywords: Fixed costs, variable costs, critical volume (break-even point), enterprise efficiency, CVP analysis, production leverage, profit stability, production risk, sensitivity analysis.

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Kirish

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlsh hamda korxonaning foyda va rentabellik ko‘rsatkichlarini barqaror boshqarish iqtisodiy tahlilning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘riladi. Ma’lumki, korxonaning foyda miqdori turli ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi, xususan, korxonaning hisobot davridagi sof foydasi, ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi, xarajatlar tuzilmasi, ishlab chiqarish texnologiyasi va resurslardan foydalanish samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, bir birlik mahsulot hajmi tarkibidagi doimiy (fixed cost) va o‘zgaruvchan (variable cost) xarajatlar o‘rtasidagi nisbat korxonaning moliyaviy natijalariga sezilarli darajada ta’sir etadi. Mahsulot tannarxi tuzilmasidagi turli o‘zgarishlar, texnika va texnologiya tanlovi, hamda ishlab chiqarish resurslarining investitsiyalash darajasi kabi bir qancha tashqi omillar foyda miqdorining shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Moliyaviy boshqaruv nuqtayi nazaridan foyda miqdori korxonaning mavjud moliyaviy resurslardan qay darajada oqilona foydalanganligini ifodalash bilan birga, foydaning shakllanishi va barqarorligi moliyaviy risk darajasi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Ushbu bog‘liqlikni o‘lchashda ishlab chiqarish yoki operatsion leveraj muhim tahliliy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Operatsion leveraj ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning korxona foydasiga ta’sir darajasini aniqlaydi va risk-rentabellik o‘rtasidagi nisbatni tahlil qilish imkonini beruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u korxonaning “foyda elastikligi”ni ifodalaydi hamda tahlilchi, menejerlarga ishlab chiqarish hajmini optimal rejalashtirish, xarajatlar tuzilmasini boshqarish, foyda barqarorligini ta’minlashda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradigan vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Adabiyotlar tahlili

So‘nggi yillarda ishlab chiqarish samaradorligi va foyda barqarorligini ta’minlashda operatsion leveraj tushunchasi iqtisodiy tahlilchilar, moliyaviy menejerlar hamda tadqiqotchilar tomonidan keng qo‘llanib kelinmoqda. Chunki, zamonaviy bozor iqtisodiyotida har bir korxonaning rentabelligi va moliyaviy xavfi, avvalo, xarajatlar tuzilmasi hamda ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning foydaga ta’siri bilan belgilanadi. Shu jihatdan, operasion leveraj korxona faoliyatining moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir etuvchi tahliliy ko‘rsatkich sifatida iqtisodiy nazariya va amaliyotda alohida o‘rin tutadi.

Ushbu atama dastlab 1950-yillarda amerikalik iqtisodchi Joel Dean tomonidan iqtisodiy menejment nazariyasiga kiritilgan bo‘lib, u leverajni ishlab chiqarish hajmidagi nisbatan kichik o‘zgarishlarning foyda miqdoriga nisbatan katta ta’sirini o‘lchovchi ko‘rsatkich sifatida izohlagan. Uning ta’rificha, operatsion leveraj darajasi doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar nisbatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu nisbat korxonaning ishlab chiqarish riskini ifodalaydi va quyidagi formula orqali ifodalaydi.

$$\boldsymbol{DOL = \frac{Q(P - V)}{Q(P - V) - F}} \quad \boldsymbol{(1)}$$

bu yerda, DOL (degree of operative leverage) operativ leveraj darajasi, Q (quantitive) – ishlab chiqarish hajmi, P – mahsulot va xizmat narxi, V (variable) – bir birlik mahsulot uchun o‘zgaruvchan xarajat qiymati, F (fixed cost) – doimiy xarajatlarni bildiradi.

Keyinchalik James Van Horne (1977) hamda Eugene Brigham va Michael Ehrhardt (2002) tomonidan leveraj nazariyasi yanada takomillashtirilib, u korxona faoliyatida foyda elastikligi va risk–rentabellik nisbatini baholashning muhim elementi sifatida talqin etila boshlandi. Xususan, ushbu yondashuvga ko‘ra, operatsion leveraj doimiy xarajatlarning mavjudligi tufayli korxona sof tushumidagi o‘zgarishlarning operatsion foydaga kuchaytirilgan ta’sirini ifodalaydi, ya’ni u moliyaviy natijalarni

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

“kuchaytiruvchi mexanizm” sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, doimiy xarajatlar ulushining ortishi korxonaning zararsizlik nuqtasiga erishish uchun zarur bo‘lgan sotuv hajmini oshirishiva bu orqali biznes xavfi darajasini ham ortishiga undaydi.

Mazkur ilmiy qarashlar Aswath Damodaran tomonidan takomillashtirilib, operatsion leveraj korxona xarajatlar tuzilmasining moslashuvchanligi bilan uzviy bog‘liqlikda ekanligi asoslab berdi. Uning fikricha, yuqori texnologiyalar bilan ta’minlangan ishlab chiqarish sharoitida doimiy xarajatlarning salmog‘i yuqori bo‘lishi leveraj effektining kuchliroq namoyon bo‘lishiga olib keladi

Shu tariqa, operatsion leveraj nafaqat ishlab chiqarish hajmini optimal darajada rejalashtirish, balki korxona foyda o‘zgaruvchanligini optimal boshqarish, xarajatlar tarkibini takomillashtirish hamda korxonaning kutilayotgan foyda normasiga erishishi uchun ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiluvchi kompleks tahliliy instrument sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalliy olimlardan S.Qosimov (2015) operatsion leverajni ishlab chiqarish riskining o‘lchovi sifatida tahlil qilgan va uni amaliyotda soddalashtirilgan ko‘rsatkich orqali baholashni taklif etgan. Olimning fikricha, leveraj korxona foydasining barqarorligini baholashda samarali indikator sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, D.Abdullayeva (2020) leverajni dinamik tahlil qilish zarurligini asoslab, uni vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan shaklda o‘rganish uslubiyatini ishlab chiqqan. Bu yondashuv leveraj darajasining iqtisodiy sikllar davomida qanday o‘zgarishini aniqlash imkonini beradi. Umumiy jihatdan, operatsion leveraj to‘g‘risidagi xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlar 1950-yillardan boshlab bosqichma-bosqich takomillashib kelmoqda. Dastlab u klassik statik ko‘rsatkich sifatida shakllangan bo‘lsa, hozirda leveraj korxona faoliyatining dinamik barqarorligini tahlil qilish va ishlab chiqarish riskini optimallashtirishda qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi kungacha mavjud tadqiqotlarning asosiy kamchiliklari sifatida bozor sharoitlari, inflyatsiya va ishlab chiqarish omillarining real ta’siri leveraj modellarida yetarlicha aniqlanmaganligi,

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

uning korxona foydasi va risk darajasi o‘rtasidagi nisbatga ta’sirini baholash hamda ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning foyda darajasiga ta’sirini tahlil qilish maqsad qilinganligini va ushbu ilmiy tadqiqot ishi aynan shu masalalarga bag‘ishlangan.Shuningdek, tadqiqotda analitik, taqqoslama va miqdoriy tahlil usullari qo‘llanilgan bo‘lib, operatsion leveraj ko‘rsatkichi hisoblash quyidagi formula asosida olib borilgan:

$$\boldsymbol{DOL} = \frac{\boldsymbol{\Delta EBIT}\,\%}{\boldsymbol{\Delta S}\,\%} = \frac{\boldsymbol{S - VC}}{\boldsymbol{S - VC - FC}} \quad (\mathbf{2})$$

bu yerda, DOL – operativ leveraj darajasi, EBIT (Earnings Before Interest and Taxes) – foiz va soliqlardan oldingi foyda, S – savdo hajmi (Tushum), V (variable) – bir birlik mahsulot uchun o‘zgaruvchan xarajat qiymati, F (fixed cost) esa doimiy xarajatlarni bildiradi. Ushbu formula yordamida ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar foyda miqdoriga qanday ta’sir ko‘rsatishi baholandi. Shuningdek, tadqiqot ishida korxonaning ishlab chiqarish hajmi va foyda o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida operatsion leveraj ko‘rsatkichi asosida senzitivlik (sezgirlik) tahlili qo‘llanildi. Sentizivlik tahlilini o‘tkazishdan asosiy maqsad korxonaning sotuv hajmidagi o‘zgarishlarga nisbatan foydaning (EBIT – foiz va soliqdan oldingi foyda) qay darajada o‘zgarishini matematik jihatdan aniqlashdir.

Tahlil va natijalar

Ilmiy tadqiqot ishida UzAuto Motors JSC kompaniyasining 2023-2024-yillardagi moliyaviy natijalari asosida Cost-Volume-Profit (CVP) tahlili o‘tkazildi hamda kompaniyaning xarajatari, sotuv hajmi va foydasi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi, bu orqali korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasini baholashga erishildi.

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

1-jadval. 2023-2024-yillarda “UzAuto Motors” AJning moliyaviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Hajmi (mln AQSH dollar)
Sotuv hajmi	4 239,59*
Sotilgan mahsulot tannarxi	3 657,42
Sotuv xarajatlari	128,31
Umumxo‘jalik (boshqaruv) xarajatlari	61,06
Amortizatsiya (jami)	59,80
Operatsion foyda (rasmiy)	383,27

** (https://uzautomotors.com/documents/IFRS-Report-2023FY.pdf) 2024-2023-yil konsolidatsiyalashgan byudjet hisobidan.*

Manba: https://uzautomotors.com/investors

1-jadval tahlili “UzAuto Motors” AJ 2024-yil yakuniy konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotiga asoslangan. Tahlilning maqsadi operativ leverajni aniqlash bo‘lganligi tufayli xarajatlarni nazariy jihatdan o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratishga zarurat tug‘ildi. Shu jihatdan, sotilgan mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilgan xarajatlar (xomashyo, ishlab chiqarish ish haqi, energiya, transport va boshqalar) – o‘zgaruvchan xarajatlar (VC) sifatida va umumxo‘jalik xarajatlari va amartizatsiya doimiy xarajat sifatida tan olindi.

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

2-jadval. 2023–2024-yillarda UzAuto Motors AJda operatsion leverajni aniqlashda xarajatlar va daromadlar tahlili

Ko‘rsatkich nomi	Formula	Hisoblangan qiymati (mln AQSH dollar)
O‘zgaruvchan xarajatlar (VC)	(Tannarx − amortizatsiya) + (Sotuv xarajatlari − amortizatsiya)	(3657,42 – 55,34) + (128,31 – 1,35) = 3729,04
Doimiy xarajatlar (FC)	Umumxo‘jalik xarajatlari + Jami amortizatsiya	61,06 + 59,80 = 120,86
Hissa marjasi (Contribution Margin, CM)	Tushum – VC	4239,59 – 3729,04 = 510,55
Amaliy EBIT (hisoblangan operatsion foyda)	CM – FC	510,55 – 120,86 = 389,69

Hisob-kitoblar muallif tomonidan UzAuto Motors AJ faoliyatiga oid ma’lumotlar asosida amalga oshirilgan.

Jadvalda “UzAuto Motors” AJda o‘zgaruvchan xarajatlar ulushining yuqoriligi kompaniya xarajatlar tuzilmasining moslashuvchanligi ko‘rsatib berilgan.

$$DOL = \frac{\textbf{CM}}{\textbf{EBIT}} = \frac{\textbf{Tushum} - \textbf{O‘zgaruvchan xarajat}}{\textbf{Tushum} - \textbf{O‘zgarmas xarajat}} = \frac{510,55}{389,69} = 1,31$$

Hisob-kitoblarga ko‘ra, operatsion leveraj koeffitsienti (DOL) 1,31 ga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich sotuv hajmining 1 foizga oshishi natijasida operatsion foydaning o‘rtacha 1,31 foizga ortishini anglatadi. Agar sotuv hajmi 10% ga (ya’ni 423,96 mln. dollarga) oshsa, operatsion foyda (EBIT) 13,1% ga (ya’ni, 51,05 mln. dollarga)

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

ko‘payadi. Bundan kelib chiqadiki, korxonaning doimiy xarajatlari ulushi nisbatan past, xarajatlar tuzilmasi esa moslashuvchan va barqaror ekan.

$$\textbf{Hissa marjasi nisbati} = \frac{\boldsymbol{CM}}{\boldsymbol{Tushum}} = \frac{\boldsymbol{Tushum - O'zgarmas\ xarajatlar}}{\boldsymbol{Tushum}}$$

$$= \frac{510{,}55}{4239{,}59} = 0{,}1204\ (12{,}04\%)$$

$$\textbf{Zararsizlik tushumi} = \frac{\boldsymbol{FC}}{\boldsymbol{CM}} = \frac{\boldsymbol{Doimiy\ \ xarajatlar}}{\boldsymbol{Tushum - O'zgaruvchi\ xarajat}}$$

$$= \frac{\mathbf{120,86}}{\mathbf{0,1204}} = 1\ 003{,}46 \text{ mln AQSH dollari}$$

Hisob-kitob natijasiga ko‘ra, korxona yillik 1003,46 mln. AQSh dollari miqdorida tushumga erishilganda foyda va zarar miqdori tenglashadi (zararsizlik nuqtasi). Joriy yillik tushum esa 4239,59 mln. AQSh dollarini tashkil etgani bois, korxona zararsizlik chegarasidan deyarli 4 barobar yuqorida, ya’ni moliyaviy xavfsizlik zonasida faoliyat yuritmoqda. Bu holat korxonaning daromadi barqarorligi va ishlab chiqarish hajmi qisqarishiga nisbatan moliyaviy barqarorlik zaxirasining mavjudligini ilmiy asoslab beradi.

3-jadval. “UzAuto Motors” AJ faoliyatining sentizivlik tahlili natijalari

Ko‘rsatkich	Hisoblangan qiymati (mln AQSH dollar)	O‘zgarish (%)da
Tushum	4663,55	+10,0
O‘zgaruvchan xarajatlar	4101,95	+10,0
Hissa marjasi	561,60	+10,0
Operatsion foyda	440,74	+13,1

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

3-jadvalda “UzAuto Motors” AJ ma’lumotlariga asosan o‘tkazilgan sentizivlik tahlili natijasi. Yuqoridagi 3-jadvaldan xulosa qilishimiz mumkinki, sotuv hajmining 10 foizga oshishi natijasida operatsion foyda 13,1 foizga ortgan. Bu holatga uchta omil ta’sir qilgan – doimiy xarajatlarning o‘zgarmasligi, hissa marjasining kengayishi hamda operatsion leveraj effekti ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lib, korxona xarajatlar tuzilmasining samaradorligi va moliyaviy barqarorligini ilmiy asosda tasdiqlab berdi

Xulosa va takliflar

Tadqiqot umumiy natijalariga ko‘ra operatsion tayanch koeffitsienti (operatsion leveraj) korxonaning ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarga nisbatan foyda darajasining sezuvchanligini aniqlovchi eng muhim tahliliy ko‘rsatkichlardan biridir.

O‘zbekiston korxonalari amaliyotida olib borilgan kuzatuvlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, aksariyat ishlab chiqarish subyektlari leveraj darajasini hisoblab chiqmaydi, natijada esa xarajatlar strukturasi va risk darajasi o‘rtasidagi muvozanat buziladi va korxona ko‘zlangan foyda normasiga erisha olmaydi. Shu sababli, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni keltirdik:

1. Korxona o‘zining operatsion leverajni doimiy ravishda monitoring qilish ya’ni foyda va ishlab chiqarish hajmidagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlarni tahlil qilishda leveraj koeffitsientini kiritishi zarur.

2. Korxona moliyaviy axborot tizimlarida raqamli tahlil modellarini qo‘llash leveraj ko‘rsatkichini avtomatik tarzda hisoblash, hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. Bunday modullar orqali operatsion leverajni doimiy monitoring qilish va tahlil jarayonini samarali amalga oshirish mumkin.

3. Korxonalarda xarajatlar tarkibini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar o‘rtasidagi optimal nisbatni ta’minlash zarur. Ushbu yondashuv operatsion leveraj darajasining asossiz oshib

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

ketishining oldini oladi hamda korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Operatsion leveraj ko‘rsatkichidan korxona faoliyatini rejalashtirish va prognozlash jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlarning foydaga ta’sirini oldindan baholash, shuningdek, asoslangan va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Dean, J. (1951). Managerial Economics. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

[2] Van Horne, J. C. (1977). Financial Management and Policy (4th ed.). Englewood Cliffs: Prentice Hall.

[3] Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2013). Financial Management: Theory and Practice. South-Western Cengage Learning.

[4] Qosimov, S. (2015). Ishlab chiqarish riskini baholashda leveraj ko‘rsatkichining o‘rni. O‘zbekiston Iqtisodiyoti Jurnali, (4), 45–52.

[5] Abdullayeva, D. (2020). Operatsion leverajni dinamik tahlil qilishning ilmiy asoslari. Iqtisodiyot va Innovatsiya, 3(2), 60–67.

[6] Sharifxo‘jayev, M. (2021). Korxona moliyaviy tahlilining zamonaviy usullari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

[7] Smith, J. (2019). Managerial Economics and Leverage Analysis. Oxford: Oxford University Press.

[8] Kaplan, R. S., & Atkinson, A. A. (2015). Advanced Management Accounting. Pearson Education.

[9] UzAuto Motors AJ. (2024). Moliyaviy hisobot (yillik). Toshkent: Korporativ veb-sayt.

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 **Vol. 1 No. 1 (2026)**

[10] Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company.

DOI: https://doi.org/10.66493/ba7mwy67
© Sharq universiteti, 2026